

GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Turg'unboyeva Nozima Muzaffar qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida iqtisodiyotni davlat miqyosida barqarorlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Jumladan, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan inqirozli holatlar, investitsion faollikning pasayishi, ishsizlik darajasining oshishi hamda valyuta tizimidagi nomutanosibliklar kabi dolzarb muammolar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat siyosatining roli, xususan, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va bozor mexanizmlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of stabilizing the economy at the state level in the context of globalization. In particular, it examines current global economic challenges such as financial crises, declining investment activity, rising unemployment, and imbalances in the currency system. The role of government policy in ensuring economic stability is also highlighted, with special attention given to economic liberalization, support for the private sector, and the development of market mechanisms.

Kalit so'zlar: Jahon iqtisodiyoti, raqobatbardoshlik, investitsion faollik, iqtisodiy barqarorlik, valyuta tizimi, inflatsiya

Key words: Global economy, competitiveness, investment activity, economic stability, currency system, inflation

Kirish: Bugungi globallashuv davrda iqtisodiyot hamda uning funksiyalarini tobora tushunish va uni amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotni davlat miqyosida barqarorlashtirish davlatning eng oliy funksiyasi hisoblanadi. Sababi mamlakatning farovonligi bugungi kunda iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etib turishi, dunyoning deyarli barcha mintaqalarida sodir bo'layotgan qaramaqarshiliklarning kuchayib borishi hamda jahon bozorida vaziyatning tez o'zgarayotgani dunyoning ko'plab mamlakatlarida investitsion faollikning pasayishi real iqtisodiyotda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati pasayib borishi ro'y berib, shuningdek jahon bozorida xarid talabining kamayishi davom etmoqda, ishsizlik darajasi ham yuqoriligicha qolmoqda. Ushbu global muammolarning yechimini faqatgina barqaror iqtisodiy siyosat bera oladi. Iqtisodiyotning eng muhim jihatlaridan biri ham ushbu muammolarni hal qilish darajasiga bog'liq.

Introduction: In the contemporary era of globalization, a comprehensive understanding of the economy and its functions, as well as their effective application in practice, has become increasingly important. Ensuring economic stability at the national level is regarded as one of the primary functions of the state, as the overall welfare of a country is closely interconnected with the state of its economy. Currently, the persistence of the global financial and economic crisis, the intensification of conflicts across various regions of the world, and the rapid fluctuations in global market conditions have led to a decline in investment activity in many countries. Consequently, the growth rate of production in the real sector of the economy has been slowing down, global market demand continues to decrease, and the level of unemployment remains relatively high. The resolution of these global challenges largely depends on the implementation of a sound and stable economic policy. One of the key aspects of the economy is directly linked to its capacity to effectively address such issues.

Adabiyotlar sharhi: B.Y.Hodiyev va Sh.Sh.Shodmonovlarning fikracha, Bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etib turishi, dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qarama-qarshiliklarning kuchayib borishi, jahon bozorida vaziyatning tez o'zgarayotgani dunyoning ko'plab mamlakatlarida investitsion faollikning susayishi, real iqtisodiyotda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati pasayib borishi ro'y berib, jahon bozorida xarid talabining kamayishi davom etmoqda, ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda, ijtimoiy keskinlik kuchaymoqda. Bundan tashqari mamlakatimizdagi ayrim sohalar, tarmoqlar va kompaniyalarda eksport hajmi kamayib, import hajmi oshib ketishi, ko'plab kapital mablag'lar sarflanishiga qaramay ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining pasayib ketishi fan-texnika taraqqiyoti yuz berib, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishiga qaramay ketgan xarajatlar va mahsulot tannarxi pasayish o'rniga aksincha, oshishi holati yuz berishi, valyuta munosabatlarining tartibga solinmaganligi, naqd pul bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar o'rtasida farq mavjudligi kabi noxush holatlar sodir bo'lib turibdi¹.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolar dolzarbdir. Valyuta tizimidan tortib hattoki ishsizlar sur'atining o'sishi global muammo hisoblanadi. Ish bilan bandlikning oqil tuzilmasini yaratish maqsadida kasbiy o'qitish, qayta tayyorlash va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosida o'z o'zini ish bilan band qilishga amaliy yordam berishni ta'minlash lozim.

Iqtisodiyot va davlat taraqqiyoti sohasidagi yana bir nufuzli shaxs Jon Meynard Keynsdir. Keyns laissez-faire kapitalizmining klassik iqtisodiy nazariyasiga qarshi chiqdi va to'liq bandlikni ta'minlash va iqtisodiy tebranishlarni barqarorlashtirish

¹ B.Y. XODIYEV, SH.SH. SHODMONOV IQTISODIYOT NAZARIYASI (DARSLIK) 2017

uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvini yoqladi. Uning g'oyalari zamonaviy makroiqtisodiy nazariyaga asos soldi va ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy farovonlik siyosatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Keyns iqtisodi 20-asr o'rtalarida hukmron iqtisodiy paradigmaga aylandi va G'arb demokratiyalarining iqtisodiy siyosatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi.²

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xatodir”. Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va moliyaviy-iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini hisobga olganda, jahon moliyaviy inqirozi, uning oqibatlari O'zbekistonga ham salbiy ta'sir ko'rsatish mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Lekin, yuzaga kelgan barcha muammo va qiyinchiliklarga qaramay, 2008 yilda iqtisodiyotimizning nafaqat barqaror faoliyat ko'rsatishiga, shuningdek, uning o'sish suratlarini izchil ta'minlashga erishildi.

Muhokama va natijalar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga muvofiq bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotni tartibga solish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy qilish tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichida davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish va xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish bo'yicha navbatdagi ishlarning natijadorligini oshirish bugungi kunda iqtisodiyotni boshqarishning aniq, shaffof va natijaga yo'naltirilgan mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Shu bilan birga, hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag'allikni qisqartirish vazifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o'rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlashni, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv joriy etishni talab etadi³.


Hozirda prezidentimiz mamlakatda iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun, davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish chora tadbirlarini amalga oshirmoqda. Ushbu natijaga to'liq erishish uchun albatta aniq va strategik mexanizm kerakligini ta'kidlaydi. Keng ko'lamlı chora tadbirlar hamda uni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Bu esa o'z o'zidan O'zbekiston iqtisodiyotini yanada

² Z.T. G AIBNAZARO VA, SH.A. ISAM UX AM ETOV IQTISODIY OT NAZARIYASI 2020

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2020 yildagi PF-5975-son

kuchayishiga, barqarorligini davom etishiga va maydonga rivojlangan holda chiqishi, jahon bozorlarida mustahkam o'rinni egallashiga zamin yaratishi nazarda tutiladi.

Ko'pincha muayyan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishib bo'lmaydi, chunki real iqtisodiyotda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati pasayib bormoqda. Masalan, agar davlat xavfsizlik va politsiya yoki asosiy xizmatlarni ko'rsatish kabi asosiy funksiyalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lmasa, erkin savdo zonasini (maxsus iqtisodiy zonalarini) rivojlantirish yoki aholining zaif qatlamlariga farovonligini ta'minlovchi mexanizm mavjud emas. Bu ko'plab xalqaro tashkilotlar, ijtimoiy soha va hattoki ijrochi hukumatlar tomonidan e'tibordan chetda qolgan narsa bo'lib, ular boshqa joylardan "eng yaxshi amaliyotlarni" tizimlar nusxasini usulida kam muvaffaqiyat bilan amalga oshirishga harakat qilmoqdalar.



Yuqoridagi rasmda 2019-2023 yillarning yanvar-sentabr oylaridagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi ko'rsatilgan. Bunda 2019 yilda sanoat sohasi 27,5% bo'lsa so'ngi yillarga kelib 25,6% ko'rsatgich bilan pasayganini bildiradi. Lekin 2019-yilda mahsulotlarning sof solig'i 8,6% bo'lsa 2023-yilga kelib sezilarli susayib YAIM tarkibini 5,4% ni tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi so'ngi 4yilda kamaygan bo'lsa, qo'shimcha xizmatlar sohasi esa sezilarli oshgan. Qurilish sohasi esa jami YAIMni juda kam qismini, o'rtacha 6,6-6,7% ni tashkil qilib kelgan.

⁴ <https://invexi.org/uz/about/>

Xulosa va takliflar: Yuqoridagi barcha muammolar hamda dolzarb mavzular talaygina. Ammo ushbu muammolar yechimini bartaraf etish ham mumkin. Bunda strategik oldindan prognozlashgan iqtisodiy tizim yaratish, muammolarni aholiga to'liq tushuntirish ishlari olib borish eng maqbul yo'ldir. Buni videoreklamalarda, o'quv darslari orqali tushuntirib borish ishlarini qo'llab quvvatlashga e'tibor qaratish kerak. Investitsiyalarni yanada qo'llab quvvatlash, yosh tadbirkorlarga imtiyozlar yaratish, import hajmini oshirish oraqli inflyatsiya darajasini pasaytish va barqaror iqtisodiyotga erishish mumkin. Ushbu maqolada qanday iqtisodiy siyosatlar so'raladigan ko'plab empirik tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Iqtisodiy o'sishga ko'proq yordam beradi. Umuman olganda, qanday iqtisodiy siyosatlar foydali ekanligi aniq o'sish: barqaror makroiqtisodiy muhit, jahon iqtisodiyotiga umumiy kirish, himoya shaxsiy mulk huquqi, hamma uchun foyda keltiradigan jamoat mollariga sarflash. Haqiqatan ham hal qiluvchi savol nega hukumatlar bu sog'lom siyosatni olib bormaydi? Bilim yetishmasligi bir qismi bo'lishi mumkin. Masalan, Rodrik ta'kidlaganidek, muayyan iqtisodiy va ijtimoiy voqelikka moslashish kerak (2003). Ammo rag'batlarning yetishmasligi, albatta, muhimroqdir. Bu topilma tomonidan taklif qilinadi adabiyotlarda yomon iqtisodiy siyosat odatda institutsional muvaffaqiyatsizliklar bilan bog'liq, ayniqsa, siyosiy institutlarning muvaffaqiyatsizligi. Ammo rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlariga to'g'ri rag'batlantirish uchun nima qilish mumkin, qisqasi yetuk demokratiyaga aylanguncha kutish kerakmi? Ushbu tahlilning amaliy xulosasi shundan iboratki siyosiy va iqtisodiy liberallashtirishning foydali to'ldiruvchi tomonlari mavjud. Siyosiy liberallashtirish iqtisodiyotni xalqaro raqobatga ochishga yordam beradi, ehtimol, shuning uchun demokratiya foyda olish ehtimoli ko'proq bo'lganlarning siyosiy ta'sirini oshiradi. Ammo iqtisodiyotni liberallashtirish iqtisodiyotni rivojlantirish sari zarur qadam bo'lib tuyuladi: busiz yangi demokratiyalar gullab-yashnamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Y. XODIYEV, SH.SH. SHODMONOV IQTISODIYOT NAZARIYASI (DARSLIK) 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2020 yildagi PF-5975-son
3. <https://invexi.org/uz/about>
4. HE ROLE OF THE STATE IN ECONOMIC DEVELOPMENT. GUIDO TABELLINI. CESIFO WORKING PAPER NO. 1256 CATEGORY 5: FISCAL POLICY, MACROECONOMICS AND GROWTH AUGUST 2004
5. Persson, T. and G. Tabellini (2003) The Economic Effects of Constitutions, Cambridge MA, MIT
6. Islom Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar.